FERUZ OBRAZI TALQINING IJTIMOIY-TARIXIY OMILLARI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Jumaniyazova Ro‘zagul Saparbayevna,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
Tel: +99890-431-33-88
E-mail: jumaniyazovarozagul3@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Muhammad Rahimxon Feruzning o‘zi yashagan davr ijtimoiy hayotidagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, uning tarixiy sharoitda muhim tarixiy shaxs ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Obrazga xos ushbu xususiyatlar tarixiy manbalar orqali dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy mavzu, tarixiy shaxs, obraz, badiiy to‘qima, tarixiy haqiqat, badiiy talqin.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль Мухаммада Рахимхана Феруза в общественной жизни того времени и показывается, что он был важной исторической фигурой в историческом контексте. Эти характеристики, присущие изображению, подтверждаются историческими источниками.*

Ключевые слова: *исторический сюжет, историческая личность, изображение, художественная фактура, историческая правда, художественная интерпретация.*

Annotation. *This article highlights the role of Muhammad Rahimkhan Feruz in the social life of the time in which he lived, and shows that he was an important historical figure in the historical context. These characteristics inherent in the image are evidenced by historical sources.*

Key words: *historical subject, historical figure, image, artistic texture, historical truth, artistic interpretation.*

Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda tarixiy shaxs obrazini biryoqlama talqinlardan xoli, siyosiy va mafkuraviy qoliplarga bo‘ysunmagan holda, tarixiy haqiqat hamda dalillarga tayangan tarzda erkin va mustaqil tasvirlash imkoniyati kengaydi. Istiqlolimiz tarixda yashagan buyuk ajdodlarimizni nainki o‘zbek adabiyotiga, balki o‘zbek xalqiga qaytarib berdi. Aynan shu davrda o‘zbek adabiyotida ko‘plab tarixiy shaxslar qatori Xiva xoni, shoh va shoir, maorif va madaniyat homiysi Muhammad Rahimxon II – Feruz obraziga ham yangicha yondashuv kuchaydi. Feruz qirq yetti yil davomida mamlakatni idora qilgan, shu davr mobaynida davlatning obodligi va mustaqilligi uchun kurashib, tariximizda o‘zining yorqin siymosi bilan chuqur iz qoldirgan. “Sayyid Muhammad Rahimxoni soniy – Feruz o‘zbek adabiyoti, san’ati va tarixida muhim o‘rin tutgan, hayotligidayoq yorqin she’rlari bilan keng tanilgan

sermahsul ijodkor, madaniyat homiysi va davlat arbobidir”[1]. Darhaqiqat, Feruz adolatparvarligi va ma’rifatparvarligi bilan tariximizda o‘chmas iz qoldirgan. Biroq yaqin o‘tmishda ya’ni sho‘ro davrida uning faoliyati qora bo‘yoqlar bilan yozilib, adabiy ijodini o‘rganish taqiqlangan edi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar va islohotlar Muhammad Rahimxoni soniy – Feruz siymosini tarixiy haqiqat asosida qayta baholash, uning shaxsiyati va ijodini xolis yoritish imkonini berdi. Feruz obrazini yaratish hamda uning shaxsiyatini badiiy talqin etishda ijtimoiy-tarixiy sharoit, ma’rifiy muhit va biografik omillar yetakchi o‘rin tutadi. Taniqli yozuvchi, tarjimon va adabiyotshunos Boboxon Muhammad Sharif Feruz haqida “Feruzning hukmdorlik faoliyatini tahlil qilib, uning uchta buyuk orzusi bo‘lgani haqida xulosa chiqarish mumkin: yurtni ozod, mustaqil ko‘rmoq, elni ma’mur qilmoq, xalq ma’naviyatini boyitmoq”[2], - deya yozadi. Darhaqiqat, Feruzning uch buyuk orzusi uning shaxsiyatidagi ijtimoiy-tarixiy, ma’rifiy hamda biografik omillar bilan uzviy bog‘liqdir.

XX asrning ma’lum davrlarida mumtoz adabiyot vakillarining ayrimlari ijodi yetarli darajada o‘rganilmagan, ularning merosi ilmiy va badiiy muomalada cheklangan holatlar ham kuzatilgan. Mumtoz shoirlar merosiga munosabat masalasi haqida G‘afur G‘ulom: “Mamlakatimizning boshqa xalqlari kabi, o‘zbek xalqi ham o‘zining asrlar davomida yaratilgan boy, o‘ziga xos madaniyatiga ega. Bu yerdan fan, adabiyot va san’atning qator ulug‘ arboblari etishib chiqqanlar. Shuni aytib o‘tish kerakki, keyingi yillarda hech qanday asossiz Lutfiy, Otoyi, Sakkokiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Munis, Ogahiy, Feruzlarning ijodi o‘rganilmayotir, biz faqat Navoiy, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz kabi shoirlar ijodini o‘rganish bilan cheklanib qolganmiz” – degan edi. Bizningcha, Feruz obrazi davrning siyosiy va ma’naviy jarayonlari bilan birga talqin etilgandagina uning mohiyati to‘liq ochiladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida yuz bergan jarayonlar adabiy muhit taraqqiyotiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda Muhammad Rahimxon II – Feruz shaxsiyati o‘zining ikki tomonlama qiyofasi ya’ni hukmdor va shoir sifatida alohida e’tiborga sazovor bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, Feruz obrazini talqin etishda tarixiylik va badiiylik uyg‘unligini ta’minlash muhim mezon hisoblanadi. Chunki Feruz haqidagi badiiy tasvirlar bir tomondan tarixiy manbalarga tayanishi, ikkinchi tomondan esa shaxsiyatning ruhiy-psixologik

[1] Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент. “EXTREMUM PRESS” нашриёти, 2011. – Б.10.
[2] Бобохон Муҳаммад Шариф. Феруз ва унинг орзуси. (Сўзбоши ўрнида)// Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент. “EXTREMUM PRESS” нашриёти, 2011. – Б.7.

qatlamlarini badiiy tafakkur imkoniyatlari orqali ochib berishi lozim. Feruz obrazining shakllanishi va badiiy talqinida davrning uch asosiy omili yetakchi o‘rin tutadi: a) ijtimoiy-tarixiy sharoit b) ma’rifiy muhit d) biografik omillar. Ushbu omillar Feruzning shaxsiyati, adabiy faoliyati va devonidagi poetik qarashlarini bir butun holda o‘rganish imkonini beradi. Chunki Feruz obrazi bir vaqtning o‘zida siyosiy boshqaruv tizimi bilan ham, saroy adabiy jarayoni bilan ham, insoniy kechinmalar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Feruz obrazini faqatgina “shoh timsoli” yoki “mumtoz shoir” qiyofasi bilan chegaralamaslik kerak.

Feruz shaxsiyati va faoliyatini ijtimoiy-tarixiy jihatdan tadqiq etishda bir qator muhim tarixiy manbalar tayanch vazifasini bajaradi. Xususan, Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning “Shohid ul-iqbol”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” hamda “Xorazm tarixi” nomli asarlari, Muhammad Ali Laffasiyning “Xeva shoir va tarixchilarining tarjimayi hollari”, shuningdek, Bobojon Tarroh Azizovning “Xorazm navozandalari” asarlarida Feruz haqida batafsil va ishonchli ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur manbalar Feruzning davlat arbobi sifatidagi o‘rni, davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi hamda Xiva xonligi tarixidagi ahamiyatini yoritishda alohida qimmatga ega.

Muhammad Rahimxon II ya’ni Boboxon to‘ra 1864-yilda Xivaga xon bo‘ladi va Xorazm xonlari orasida eng uzoq davr – 47 yil hukmronlik qilgan. Shu davr mobaynida davlatni adolat va ma’rifat bilan boshqardi. Muhammad Rahimxonning bevosita rahbarligi va homiyligida ulkan qurilishlar, xususan, turli xil binolar, inshootlar, madrasa-yu maktablar, minora-yu darvozalar, bog‘-u rog‘lar, yo‘llar barpo etildi, xalq turmushi uchun muhim bo‘lgan suv havzalari va yo‘llari har yili ikki marta tozalandi. Shoir va tarixchi olim, Feruzning do‘sti va ustozi Muhammad Yusuf Bayoniy xonning bu ishlari haqida quyidagicha yozadi: “Bu binolarning hammalari ul hazratning targ‘iblari bila bo‘ldi…yana Tozabog‘ atrofida ham ko‘p bevatanlarni vatanli etdilar va to‘rt oliy masjid bino qildurub Tozabog‘da vatan tutg‘on bevatanlar to‘rt masjid qavmi bo‘ldilar. Yana Yangi qal’ada Nurullobek havli va bog‘larining sharqi-shimol tarafida ko‘p bevatanlarga vatan berib va bir oliy masjid bino qildurub, ul yerni Sultonobod ismi bila mavsum etdilar. Ul masjidning qavmi yuz uyli bo‘ldi. Alhaq, ko‘p yerlarni obod etdilar. Ko‘p masjidlar va madrasalar, qorixonalar bino bo‘lub, ko‘p yerlar obodon bo‘ldi va haloyiq ham “Annossu alo dini mulukahum” muqtazosicha amali xayrga rog‘ib bo‘lub, hatto, Muhammad Panohboy degan ham masjidi kalonning orqa tarafida bir madrasa bino qildi. Va Qori bazzos Yusufbek ibn Fozilbiy mag‘furning o‘z

mahallasidagi havlilarning o‘rnida bir minorali madrasa bino qildi”[3]. Ko‘rinadiki, Feruz hukmronligi davrida mamlakat hayotida obodonchilik va bunyodkorlik ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilgan bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash hamda xalq turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan muhim siyosiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, turli inshootlar, madrasa va maktablar, masjidlar, minora hamda darvozalar, shuningdek, bog‘-rog‘lar va yo‘llarning barpo etilishi o‘sha davrda jamiyatning ijtimoiy infratuzilmasini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, suv havzalari va sug‘orish tizimiga oid ishlarning muntazam yo‘lga qo‘yilgani mamlakat iqtisodiy hayotining asosiy tayanchi bo‘lgan dehqonchilikni barqarorlashtirish bilan bevosita bog‘liq edi. Bunday siyosat mamlakatda ijtimoiy muvozanatni saqlash, aholi turmushini yengillashtirish, jamoaviy hayotning barqarorligini mustahkamlash kabi vazifalarning ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi. Bizningcha, Feruz obrazini badiiy talqini davlat arbobi sifatidagi qiyofasi, davrning ijtimoiy ehtiyojlari, tarixiy sharoitning murakkabligi hamda barqarorlikni ta’minlash zarurati bilan uzviy bog‘liqdir.

Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida ayrim hududlarda vaqti-vaqti bilan isyonlar yuzaga kelib, Xiva tomon hujumlar uyushtirishgan. Shunday sharoitda xon davlatni adolat bilan idora etib, mamlakat hududida yashab kelgan o‘zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasida totuvlikni mustahkamlagan, milliy nizolarning oldini olgan hamda ichki tinchlikni ta’minlay olgan. Xususan, qo‘zg‘olonlar va mahalliy tartibsizliklar ko‘proq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hududlarda qat’iy boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘ygan. “Qo‘ng‘irot, Ilolli, Toshhovuz, Darg‘on ota kabi qal’alarga ishonchli kishilarni hokim qilib, joylarda qat’iy tartib joriy etdi. Xonning adolat-parvarligi, intizom o‘rnatishi tufayli bu isyonlar sezilarli darajada kamaydi. Muhammad Rahimxon kimda kim uning sha’niga yomon so‘z aytsa, podsholikka til tegizsa, dini islom to‘g‘risida noma’qul gaplar aytsa, aslo kechirmas edi. Chunki bu holat oxir-oqibat tartib-intizomga, barqarorlikka, tuzumga putur yetkazishini yaxshi bilar edi”[4]. Feruz davlat boshqaruvida qat’iylik va intizom masalasiga alohida ahamiyat bergan. Xon davlat tuzumi va jamiyat osoyishtaligiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan holatlarga murosasiz munosabatda bo‘lgan. Davlatyor Rahim va Shixnazar Matrasul Feruz hukmronligi davrini quyidagicha tasniflaydi: “Muhammad Rahimxon Xorazmda hukmronlik qilgan davrni shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin. Birinchi davr dastlabki o‘n yil, ya’ni mustaqil davlatga rahbarlik qilingan 1864-1873 yillar. Ikkinchi davr 1873-yil 12-avgustdan 1910-yilning 16-avgustiga qadar bo‘lgan 37 yil. Bu davrda

[3] Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – B. 89-90
[4] Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент. “EXTREMUM PRESS” нашриёти, 2011. – Б.37.

u rus imperatoriga qaram bo‘lgan holda hukmdorlik qildi”[5]. Bizningcha, Feruz shaxsiyati va faoliyati, badiiy adabiyotdagi talqini ushbu ikki bosqichning ijtimoiy-tarixiy sharoitlari bilan uzviy bog‘liqdir. Birinchi davrda davlat mustaqilligi, ichki siyosiy barqarorlik, obodonchilik va jamiyatdagi totuvlik masalalari ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi davrda Xiva xonligi siyosiy hayotiga tashqi bosim, mustamlakachilik siyosati hamda qaramlik katta ta’sir o‘tkazgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент. “EXTREMUM PRESS” нашриёти, 2011. – Б.10.
2. Бобохон Муҳаммад Шариф. Феруз ва унинг орзуси. (Сўзбоши ўрнида)// Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент. “EXTREMUM PRESS” нашриёти, 2011. – Б.7.
3. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – B. 89-90
4. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент. “EXTREMUM PRESS” нашриёти, 2011. – Б.37.

[5] Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. – Тошкент. “EXTREMUM PRESS” нашриёти, 2011. – Б.37.